# “TARAQQIYOT STRATEGIYASI” MARKAZI FAOLIYATI TAHLILI

**Javokhir Ergashov Inomjon o‘g‘li**
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Taraqqiyot strategiyasi” markazining 2017–2026-yillarda amalga oshirilgan strategik islohotlarni jamoatchilik muhokamasi va ekspert tahlili bilan ta’minlashdagi institutsional rolini tahlil qilingan. Bu tadqiqotda hujjatlarni tahlil qilish, funksional institutsional tahlil va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanilgan. Markaz faoliyatiga doir ma’lumotlarni tahlil qilishda markazning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, nashr etilgan hisobotlari, “On Think Tanks” platformasi ma’lumotlari, shuningdek, tegishli qonun hujjatlari va davlat dasturlaridan foydalanildi. Markazning faoliyatiga qisqacha to‘xtalsak, 2017–2026-yillar davomida 58 ta memorandum imzolagan, yiliga o‘rtacha 300 ga yaqin tadbir tashkil etgan, 60 dan ortiq qonun loyihalarini tahlil qilgan hamda 100 dan ortiq tahliliy maqolalar chop etgan Maqola tahlili aynan shularga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Taraqqiyot strategiyasi” markazi, strategik islohotlar, jamoatchilik muhokamasi, ekspert tahlili, aql markazi, hamkorlik, tahlil, qonunchilik hujjatlari.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng iqtisodiy va siyosiy tizimda bir qator o‘zgarishlar amalga oshirildi. Biroq 2016-yil oxirida hokimiyat tepasiga Shavkat Mirziyoyev kelgach, mamlakatda tub islohotlarning yangi bosqichi boshlandi. Ushbu bosqichning asosiy hujjati 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan “2017–2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Prezident farmoni bo‘ldi [1]. Ushbu hujjatda davlat boshqaruvi, sud-huquq, iqtisodiyot, ijtimoiy soha hamda xavfsizlik va millatlararo totuvlik sohalarida islohotlarning aniq yo‘nalishlari belgilandi. Keyinchalik bu strategiya o‘rnini 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va undan keyin “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi egalladi [3]. Ushbu strategik hujjatlarning amaliyotga tatbiq etilishi nafaqat davlat organlari, balki fuqarolik jamiyati institutlari, ekspertlar va keng jamoatchilik ishtirokisiz mumkin emas edi. Shu sababli, 2017-yil 14-fevralda Prezident farmoyishiga asosan “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tashkil etildi [2]. Markazning maqsadi Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha ekspertlik va jamoatchilik muhokamasini samarali tashkil etish, shuningdek, davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasida muloqot platformasi vazifasini bajarish deb belgilangan [2; 3]. Mazkur maqolada “Taraqqiyot strategiyasi” markazining 2017–2026-yillardagi institutsional evolyutsiyasi, faoliyat yo‘nalishlari, xalqaro hamkorligi, erishgan asosiy natijalari, shuningdek, uning oldida turgan muammolar va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy muammosi – nodavlat notijorat tashkilot maqomiga ega bo‘lgan ushbu markazning davlat strategik siyosatini jamoatchilik muhokamasi bilan qay darajada samarali bog‘lay olishi va uning mustaqil ekspertlik tahlili imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

**Foydalanilgan manbalar tahlili va metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda, asosan, hujjatlarni tahlil qilish, funksional institutsional tahlil va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Markaz faoliyati tarixini tahlil qilishda foydalanilgan manbalar bir necha toifadagi materiallardan tashkil topdi. Birinchi toifaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017–2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni [1] va 2017-yil 14-fevraldagi farmoyishi [2] kiritildi. Ushbu hujjatlar markazning tashkil etilishining huquqiy asosini tashkil etadi. Ikkinchi toifani “Taraqqiyot strategiyasi” markazining rasmiy veb-sayti (strategy.uz) va uning Twitter, Facebook, Instagram hamda YouTube’dagi rasmiy sahifalarida 2017–2026-yillar oralig‘ida e’lon qilingan ochiq hisobotlar, tadbirlar haqidagi ma’lumotlar va nashrlar tashkil etdi [3]. Uchinchi toifaga markaz tomonidan chop etilgan “O‘zbekiston strategiyasi” jurnali [5], “Taraqqiyot davri” risolasi va “Harakatlar Strategiyasi bilan 3 yil: kutilgan natijalar, yuqori samaradorlik va yuksak marralar” nomli risola materiallari kiritildi [4]. To‘rtinchi toifaga “On Think Tanks” xalqaro platformasida

markaz haqidagi ma’lumotlar [6], shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasida imzolangan memorandumlar matnlari va ular haqidagi ochiq axborotlar kiritildi [7; 8; 9; 10].

Tahlil jarayonida ma’lumotlarni tekshirishda uchburchaklanish (triangulation) usuli qo‘llanildi – ya’ni bir xil fakt rasmiy hujjat, veb-sayt va mustaqil xalqaro platforma orqali tekshirildi [3; 6]. Faoliyat natijalarini baholashda miqdoriy ko‘rsatkichlar (imzolangan memorandumlar soni, o‘tkazilgan tadbirlar soni, tahlil qilingan qonun loyihalari soni) va sifat ko‘rsatkichlari (xalqaro hamkorlik darajasi, strategik hujjatlardagi o‘zgarishlar) birgalikda tahlil qilindi. Tadqiqot vaqt oralig‘i 2017-yil fevral (markaz tashkil etilgan sana) dan 2026-yil aprelgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Markazning ichki hujjatlari yoki yopiq hisobotlariga tadqiqotchi tomonidan kirish imkoniyati bo‘lmaganligi sababli, tahlil faqat ochiq manbalarga asoslangan. Bu tadqiqotning asosiy cheklanishi hisoblanadi.

**Natijalar.** “Taraqqiyot strategiyasi” markazining tashkil etilishi 2017-yil 14-fevraldagi Prezident farmoyishi bilan rasmiylashtirilgan bo‘lib, 2017-yil 23-fevralda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan [2; 3]. Markaz nodavlat notijorat tashkilot maqomida tashkil etilgan va uning yetti nafar muassisi bo‘lgan. Ular qatoriga Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston advokatlar palatasi, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O‘zbekiston Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi va Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi kiradi [3].

Markaz faoliyatining dastlabki uch yillik yakunlari bo‘yicha e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, markaz 58 ta memorandum imzolagan, ularning 18 tasi 2019-yilning o‘zida tuzilgan [4]. Xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda 600 ga yaqin seminar, matbuot anjumani va davra suhbati tashkil etilgan [4]. Yiliga o‘rtacha 300 ga yaqin konferensiya, davra suhbati va ochiq muloqot tadbirlari o‘tkazilgan [3]. Markaz 60 dan ortiq qonun loyihasini tahlil qilgan va ular yuzasidan ekspert xulosalari tayyorlagan [3]. Faqat 2019-yilning o‘zida 100 dan ortiq tahliliy va mualliflik maqolalari e’lon qilingan [4]. Ommaviy axborot vositalari orqali 100 dan ortiq lavha, teledastur va radiointervyu tayyorlangan. Markaz 170 ga yaqin davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan aloqa o‘rnatgan [4].

Xalqaro hamkorlikda esa markaz bir qator nufuzli aql markazlari bilan memorandum imzolagan. Xususan, Italiyaning “European House – Ambrosetti” tahliliy markazi bilan hamkorlik o‘rnatilgan. Ushbu markaz dunyoning eng yaxshi 20 aql markazi reytingidan joy olgan [3; 7]. Shuningdek, Fransiyaning Siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tadqiqotlar instituti va 46 yillik tajribaga ega bo‘lgan CAPS (Tahlil, prognozlash va strategiya markazi) bilan ham memorandumlar tuzilgan [3]. Turkiyaning Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar jamg‘armasi (SETA) bilan 2026-yilda memorandum imzolangani haqida ma’lumotlar mavjud [12]. AQSH Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan 2018-yil iyun oyida uchrashuv va qo‘shma loyihalar muhokamasi o‘tkazilgan [3]. Jahon banki bilan Jamoatchilik kengashlari faoliyatini rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha qo‘shma loyiha amalga oshirilgan [3]. Markaz ijrochi direktori 100 dan ortiq xorijiy delegatsiya va elchilarni qabul qilgan, shuningdek, Turkiya, Italiya va Fransiyadagi aql markazlariga tashriflar uyushtirgan.

Markazda nashr ishlari keng yo‘lga qo‘yilgan. “O‘zbekiston strategiyasi” jurnali har chorakda o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etilib, unda islohotlarning tahliliy tahlili beriladi [5]. “Taraqqiyot davri” risolasi infografika ko‘rinishida islohotlarning raqamli ko‘rsatkichlarini jamlaydi [3]. 2020-yilda “Harakatlar Strategiyasi bilan 3 yil: kutilgan natijalar, yuqori samaradorlik va yuksak marralar” nomli risola nashr etilgan [4]. 2023-yilda “Harakatlar strategiyasi sarhisobi” nomli infografik to‘plam chop etilgan bo‘lib, unda 2017–2021-yillardagi islohotlar natijalari qiyosiy-tahliliy shaklda taqdim etilgan [8]. To‘plamda qo‘shilgan qiymat solig‘i 2017-yildagi 20 foizdan 2021-yil yakuniga kelib 15 foizga tushirilgani, bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish ko‘rsatkichi 27.7 foizdan 67 foizga yetkazilgani, OTMlar soni 70 tadan 154 taga ko‘paygani kabi ma’lumotlar aks ettirilgan [8]. Markaz mustaqil ravishda infografik roliklar va videomateriallar tayyorlab, ularni davlat va nodavlat telekanallarga yetkazib beradi [3]. Veb-saytning oylik tashrifi to‘g‘risida aniq statistik ma’lumotlar ochiq manbalarda mavjud emas, biroq markazning “On Think

Tanks” platformasida ro‘yxatdan o‘tgani va ma’lumotlari muntazam yangilanib turishi qayd etilgan [6]. Bundan tashqari, markaz Harakatlar strategiyasi (2017–2021), Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining jamoatchilik muhokamasida faol qatnashgan. 2025–2026-yillarda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yangilangan tahririni ishlab chiqish jarayonida markaz tomonidan 3,564 ta taklif va mulohazalar to‘plangan bo‘lib, ulardan 2,153 tasi asosli taklif sifatida baholanib, tegishli vazirlik va idoralar bilan ko‘rib chiqilgan. Eng ko‘p taklif (1,427 ta) “Har bir insonning salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratish” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha kelib tushgan.

**Muhokama.** “Taraqqiyot strategiyasi” markazini ilmiy jihatdan tahlil qilishda uning ikki tomonlama xususiyatiga e’tibor qaratish lozim. Bir tomondan, “markaz nodavlat notijorat tashkilot sifatida ro‘yxatdan o‘tgan, bu unga ma’lum darajada mustaqillik va jamoatchilik bilan bevosita ishlash imkoniyatini beradi [2; 3]. Ikkinchi tomondan, markazning asosiy vazifasi aynan Prezident farmoni bilan tasdiqlanadigan davlat dasturlari hamda starategiyalarining hayotga tatbiq etilishi, ularni amalga oshirish ijrosini kuzatish va nazorat qilish hisoblanadi” – deydi markaz bo‘lim boshlig‘I To‘lqin Tursunov. Bu holat markazni an’anaviy “think tank” (aql markazi) tushunchasidan farq qiladi. Agar xalqaro tajribada aql markazlari odatda mustaqil siyosiy tahlil, tanqid va muqobil strategiyalar ishlab chiqish vazifasini bajaradigan bo‘lsa, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi asosan davlat tomonidan belgilangan strategik yo‘nalishlarni jamoatchilikka yetkazish va ularni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Bu markazni ko‘proq “hukumat aloqalari va jamoatchilik ishtiroki markazi” sifatida tavsiflashga imkon beradi[6]. Shu bilan birga, markazning faoliyatida haqiqiy ekspertlik tahlil elementlari ham mavjud. 60 dan ortiq qonun loyihalarining tahlili, 100 dan ortiq tahliliy maqolalarning e’lon qilinishi va xalqaro aql markazlari bilan hamkorlik qilish markazning ma’lum darajada analitik salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi[3]. Biroq bu tahlillarning qanchasi davlat siyosatiga tanqidiy yondashgani, qanchasi taklif sifatida qabul qilingani ochiq manbalarda to‘liq aks etmagan. Markazning jamoatchilik nazorati bo‘yicha saylovlardagi ishtiroki esa uning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi rolini kuchaytiradi. Xususan, 2026-yilda Senatning Xalqaro munosabatlar qo‘mitasi bilan imzolangan memorandum parlament nazoratini kuchaytirish va qonunchilik sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bu markazning davlat boshqaruvi tizimidagi o‘rnini mustahkamlaydi [9].

Qiyosiy tahlil nuqtai nazaridan qarasak, Qozog‘istondagi Strategik tadqiqotlar instituti (KazISS) asosan ilmiy-tadqiqot tashkiloti sifatida faoliyat yuritadi va uning hisobotlari ko‘pincha akademik jurnallarda chop etiladi. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi esa ularga nisbatan ko‘proq ommaviy tadbirlar, media mahsulotlar va ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi bilan ajralib turadi. Markaz yiliga 300 ga yaqin tadbir o‘tkazishi – bu Markaziy Osiyo miqyosida juda yuqori ko‘rsatkichdir [3]. Ammo bu tadbirlarning chuqurligi, davomiyligi va real ta’siri to‘g‘risida mustaqil baholashlar mavjud emas.

Markazning kuchli tomonlari sifatida uning strategik hujjatlar bilan uzviy bog‘liqligi, xalqaro miqyosda tan olingan aql markazlari bilan hamkorlik qila olishi, uch tilda ish yuritishi va keng jamoatchilik qamrovini ta’minlay olishini qayd etish mumkin. Shuningdek, markazning “On Think Tanks” kabi xalqaro platformalarda ro‘yxatdan o‘tganligi uning xalqaro standartlarga mos kelishga intilayotganini ko‘rsatadi [6].

**Xulosa.** “Taraqqiyot strategiyasi” markazi 2017–2026-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasidagi strategik islohotlarning jamoatchilik muhokamasi, ekspert tahlili va axborot qo‘llab-quvvatlovchi asosiy institutlaridan biriga aylandi. Markaz Harakatlar strategiyasi, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining amaliyotga tatbiq etilishida davlat va jamoatchilik o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarib kelmoqda [1; 3]. Uning faoliyatidagi asosiy natijalar qatoriga 58 ta xalqaro va mahalliy memorandumlar, 600 ga yaqin qo‘shma tadbirlar, yiliga o‘rtacha 300 ta konferensiya va davra suhbatlari, 60 dan ortiq tahlil qilingan qonun loyihalari, 100 dan ortiq tahliliy maqolalar kiradi [3; 4]. Markazning xalqaro hamkorlikdagi yutuqlari – ayniqsa, “European House – Ambrosetti”, CAPS va SETA kabi nufuzli aql markazlari bilan memorandumlar imzolanishi – uning xalqaro maydondagi obro‘sini oshirgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Taraqqiyot strategiyasi” markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2017-yil 14-fevral.

3. “Taraqqiyot strategiyasi” markazining rasmiy veb-sayti – https://www.strategy.uz (oxirgi kirish 2026-yil 14-aprel).

4. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi. “Harakatlar Strategiyasi bilan 3 yil: kutilgan natijalar, yuqori samaradorlik va yuksak marralar”. Toshkent, 2020.

5. “O‘zbekiston strategiyasi” jurnali, 2019–2026 yillar nashrlari. strategy.uz saytidagi arxiv.

6. On Think Tanks platformasidagi “Taraqqiyot strategiyasi” markazi profili – https://onthinktanks.org/think-tank/taraqqiyot-strategiyasi-markazi.

7. European House – Ambrosetti rasmiy veb-sayti – https://www.ambrosetti.eu

8. “Harakatlar strategiyasi sarhisobi” nomli infografik to‘plam – Xalq so‘zi nashri, 2023-yil 27-yanvar.

9. Senate and “Development Strategy” Center Sign Memorandum of Cooperation – Bright Uzbekistan, 2026-yil 26-mart.

10. Institute of Regional Studies and Development Strategy Center Memorandum of Understanding – LinkedIn post, 2025-yil 20-dekabr.

11. Development Strategy Center LinkedIn sahifasi – https://uz.linkedin.com/company/development-strategy-center